

**2016-YILDAN KEYINGI DAVRDA O‘ZBEKISTON VA QOZOG‘ISTON
O‘RTASIDAGI STRATEGIK SHERIKLIKNING TRANSFORMATSIYASI.**

Qurolboyeva Maftuna Olimjon qizi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi 2302-guruh talabasi

Email: maftunaqurolboyeva237@gmail.com

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada 2016 - yildan keyingi davrda O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi strategik sheriklikning transformatsiyasi mintaqaviy integratsiya va o‘zaro bog‘liqlik nazariyalari doirasida kompleks tahlil qilinadi. 2016 - yil O‘zbekiston tashqi siyosatida strategik jihatdan burilish va o‘zgarishlar boshlangan nuqta sifatida e‘tirof etiladi. Xususan, Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilgan ochiq va pragmatik mintaqaviy siyosat Markaziy Osiyoda institutsional yaqinlashuv jarayonlarini jadallashtirdi. Tadqiqotning maqsadi ikki davlat o‘rtasidagi iqtisodiy integratsiya, siyosiy muloqot va gumanitar hamkorlikning sifat o‘zgarishlarini aniqlash hamda ularning mintaqaviy barqarorlikka ta‘sirini baholashdan iborat. Metodologik jihatdan maqolada miqdoriy (savdo ko‘rsatkichlari, investitsiya oqimlari) va sifat tahlil (rasmiy shartnomalar, yuqori darajadagi uchrashuvlar, diplomatik tashabbuslar) usullaridan foydalaniladi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy o‘zaro bog‘liqlik siyosiy ishonchni mustahkamlab, ikki tomonlama munosabatlarni institutsionallashtirishga xizmat qilgan. Gumanitar aloqalarning kengayishi esa uzoq muddatli mintaqaviy integratsiya jarayonlari uchun ijtimoiy asos yaratgan. O‘zbekiston–Qozog‘iston strategik sherikligi Markaziy Osiyoda barqarorlik va kuchlar muvozanatini shakllantiruvchi muhim strukturaviy omil sifatida qaraladi.

Kalit so‘zlar: *strategik sheriklik, mintaqaviy integratsiya, o‘zaro bog‘liqlik nazariyasi, Markaziy Osiyo, institutsional hamkorlik, tarixiy do‘stlik.*

KIRISH

XXI asrning o‘rtalarida kelib Markaziy Osiyo mintaqasi global geosiyosat va iqtisodiy integratsiya nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Xususan, O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi munosabatlar so‘nggi o‘n yillikda jadal sur‘atlarda o‘tdi. Tarixiy do‘stlik, geosiyosiy qo‘shnichilik va umumiy iqtisodiy manfaatlarga asoslangan bu sheriklik ikki davlat uchun strategik ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi rasmiy do‘stona hamkorlik aloqalari 1998 - yilda imzolangan “O‘zbekiston – Qozog‘iston Do‘stlik va hamkorlik shartnomasi” bilan mustahkam institutsional asosga ega bo‘lgan va keyinchalik

2013-yilda yangilangan “Strategik sheriklik shartnomasi” bilan yanada chuqurlashgan ¹⁴. 2016 yil Markaziy Osiyo siyosatida muhim burilish nuqtasi bo‘ldi; aynan shu yildan boshlab O‘zbekistonning ichki va tashqi siyosatida ochiqlik, iqtisodiy islohotlar va qo‘shni davlatlar bilan hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha yangi strategiyalar qabul qildi. Bu davr mobaynida O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi sezilarli darajada o‘sd: 2020-yilda taxminan 2.9 milliard AQSh dollarini tashkil etib, keyingi yillarda izchil o‘shish ko‘rsatdi, 2022-yilda esa 4.9 milliard dollarga yetdi, 2023-yilda esa 4.4 milliard dollar darajasida ayd etildi, bu ikki mamlakatning iqtisodiy salohiyati va savdo integratsiyasining mustahkamligini tasdiqlaydi ¹⁵. Keyingi yillarda ham savdo-iqtisodiy aloqalar strategik tarzda rivojlandi: 2021-yilda o‘zaro savdo 4,3 milliard dollarga yetdi, 2025-yilda esa bu ko‘rsatkich deyarli 5 milliard dollarga yetdi va tomonlar uni 2030-yilga borib 10 milliard dollarga oshirishni maqsad qilganlar ¹⁶. Bu raqamlar ikki davlat o‘rtasidagi iqtisodiy integratsiyaning nafaqat kengayib borayotganini, balki barqarorligini ham tasdiqlaydi. Iqtisodiy jihatdan o‘shish bilan bir qatorda siyosiy hamkorlik ham mustahkamlanmoqda. O‘zbekiston va Qozog‘iston hukumatlari bir qator yuqori darajadagi uchrashuvlar va hukumatlararo komissiya yig‘ilishlari orqali ikki tomonlama siyosiy dialogni davom ettirmoqda. Masalan, 2024 yilda Qozog‘iston bosh vaziri Alihan Smaiylonovning Tashkentga rasmiy tashrif chog‘ida savdo, investitsiyalar va transport sohalaridagi hamkorlik rejalari muhokama qilingan ¹⁷. Transport va kommunikatsiya infratuzilmasi ham hamkorlikning asosiy yo‘nalishlaridan birini tashkil qiladi. Ikki davlatning temir yo‘l va avtomobil yo‘llari tarmoqlari integratsiyalashgani nafaqat savdo, balki mintaqaviy tranzit va iqtisodiy bog‘liqlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu kontekstda gumanitar hamkorlik ham alohida ahamiyatga ega. Transport va savdo aloqalari orqali erkin odamlar almashinuvi, madaniy va ta’lim sohalaridagi almashinuvlar ham ijtimoiy maydonda ikki davlat o‘rtasidagi ishonchni oshiradi. Shu bilan birga, gumanitar sohada erishilgan yutuqlar ikki tomonlama

¹⁴ Abdurazakova, K.Y. (2025). The Impact of Uzbekistan-Kazakhstan Relations on the Central Asian Region. International Journal of History and Political Sciences, 05(03), 20–24.

¹⁵ Uzbekistan’s trade turnover with Kazakhstan over past 4 years revealed, Trend.Az, 7 Apr 2024. <https://www.trend.az/casia/uzbekistan/3882828.html?>

¹⁶ Caspian Post. Kazakhstan becomes Uzbekistan’s third largest trade partner with \$3.8 billion in trade.2024. <https://caspianpost.com/economics/kazakhstan-becomes-uzbekistan-s-third-largest-trade-partner-with-3-8-billion-in-trade?>

¹⁷ Official visit of the Prime Minister of Kazakhstan to Uzbekistan, discussions on trade, investment and transport cooperation, Embassy of Kazakhstan in Tashkent, 2024. <https://primeminister.kz/en/news/kazakhstan-uzbekistan-trade-and-economic-cooperation-olzhas-bektenov-pays-working-visit-to-tashkent-27547?>

siyosiy strategiyalarning uzoq muddatli barqaror ekanligini ko‘rsatadi. Shu sababli, 2016-yildan keyingi davrda O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi strategik sheriklikni iqtisodiy, siyosiy va gumanitar yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil qilish bugungi zamon Markaziy Osiyo integratsiyasini o‘rganishda muhim vazifalardan biridir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

2016-yildan keyingi davrda O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar sezilarli darajada kuchaydi. Masalan, 2024-yilning yanvar–noyabr oylarida savdo aylanmasi 3,8 milliard AQSh dollarini tashkil etdi, buning 1,3 milliard dollari eksport, 2,5 milliard dollari esa import edi ¹⁸. Savdo o‘sishi faqat iqtisodiy foyda bilan chegaralanmaydi. Bu o‘z navbatida siyosiy ishonchni oshiradi, chunki iqtisodiy bog‘liqlik ikki davlatni bir-biriga strategik jihatdan bog‘laydi. Shu tariqa, iqtisodiy raqamlar siyosiy barqarorlik va mintaqaviy integratsiya jarayonining ham ko‘rsatkichiga aylanadi. 2025- yilning birinchi to‘rt oyida o‘zaro savdo 1,4 milliard dollarga yetib, o‘tgan yilga nisbatan 5% ga oshgani qayd etildi ¹⁹. Bu ikki mamlakatning iqtisodiy integratsiyasi nafaqat barqaror, balki izchil rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Bu raqamlar O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi iqtisodiy sheriklikning kelajakda mintaqaviy tranzit va eksport-import salohiyatini yanada oshirish imkoniyatini ko‘rsatadi. 2025 yil ma‘lumotlariga ko‘ra, ikki davlat orasida 6,5 mingdan ortiq qo‘shma korxona faoliyat yuritmoqda ²⁰. Ushbu korxonalar sanoat, transport, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohalarini qamrab oladi. Ularning umumiy portfeli 8 milliard dollarga teng. Transport infratuzilmasining integratsiyasi, jumladan temir yo‘l va avtomobil yo‘llari tarmoqlari, savdo samaradorligini oshirdi, tranzit va logistikani optimallashtirdi. Tahlil nuqtai nazaridan, bu nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy bog‘liqlikni ham kuchaytiradi, chunki o‘zaro transport va logistika tizimi siyosiy ishonchning konkret ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. Siyosiy hamkorlik doimiy ravishda mustahkamlandi. 2025- yil noyabr oyida rahbarlar uchrashuvi bo‘lib o‘tdi, unda savdo hajmini 10 milliard dollarga yetkazish bo‘yicha strategik maqsadlar belgilandi ²¹. Shu kabi yuqori darajadagi uchrashuvlar faqat rasmiy bayonot sifatida qolmay, ikki tomonlama institutlararo ishonchni mustahkamlaydi. Siyosiy hamkorlikning bunday mustahkamlanishi mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlashga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatadi. Oliy ta‘lim sohasidagi almashinuvlar, qo‘shma ilmiy dasturlar va madaniy loyihalar 2023–2024 yillarda jadal rivojlandi . Bu

¹⁸ Kazakhstan–Uzbekistan trade turnover tops \$3.8 billion in 2024, Caspian Post, 26 Dec 2024.

<https://caspianpost.com/economics/uzbekistan-kazakhstan-trade-turnover-tops-3-8-billion-in-2024?>

¹⁹ Trade turnover between Uzbekistan and Kazakhstan approaches \$1.4 billion, UzA / Kazinform, 24 May 2025.

https://uza.uz/en/posts/trade-turnover-between-uzbekistan-and-kazakhstan-approaches-14-billion_723452?

²⁰ Kazakhstan and Uzbekistan develop 78 joint projects worth USD 1.7 bln, Kazinform, 14 Nov 2025.

<https://qazinform.com/news/kazakhstan-and-uzbekistan-develop-78-joint-projects-worth-usd-17-bln-2c296b?>

²¹ Uzbekistan and Kazakhstan set \$10 bn trade turnover target, Kursiv Media Uzbekistan, 16 Mar 2025.

<https://uz.kursiv.media/en/2025-03-16/uzbekistan-and-kazakhstan-set-10-bn-trade-turnover-target/?>

gumanitar aloqalar ikki mamlakat fuqarolari o‘rtasidagi ijtimoiy ishonchni oshiradi va uzoq muddatli strategik sheriklikni ijtimoiy asos bilan ta’minlaydi. Iqtisodiy va siyosiy hamkorlik bilan birgalikda gumanitar yo‘nalish strategik sheriklikni mustahkamlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Iqtisodiy o‘shish siyosiy dialog va institutsional ishonchni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Siyosiy hamkorlik mintaqaviy barqarorlikni kuchaytiradi. Gumanitar almashinuv uzoq muddatli strategik sheriklikning ijtimoiy bazasini ta’minlaydi. Shunday qilib, O‘zbekiston va Qozog‘iston strategik sherikligi nafaqat ikki tomonlama hamkorlik modeli, balki Markaziy Osiyo integratsiyasida barqarorlik va kuchlar muvozanatini shakllantiruvchi markaziy strukturaviy elementga aylanmoqda.

XULOSA

2016-yildan keyingi davrda O‘zbekistan va Qozog‘iston o‘rtasidagi hamkorlikning sifat jihatdan kuchayganini ko‘rishimiz mumkin. Iqtisodiy, siyosiy va gumanitar yo‘nalishlar nafaqat mustaqil rivojlanib, balki o‘zaro bog‘langan tizim hosil qilmoqda. Bu integratsiyalashgan model ikki davlat o‘rtasida barqaror strategik sheriklikni ta’minlab, mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Savdo hajmi, qo‘shma korxonalar va transport-logistika tizimining rivoji nafaqat iqtisodiy foyda, balki strategik ahamiyatga ega. 2024 yil yakuni bo‘yicha 3,8 milliard dollarlik savdo hajmi va 6,5 mingdan ortiq qo‘shma korxona ikki davlatni iqtisodiy jihatdan bir-biriga bog‘laydi. Bu raqamlar iqtisodiy bog‘liqlikning uzoq muddatli strategik sheriklik uchun poydevor ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, yangi investitsiyalar va qo‘shma korxonalar innovatsion texnologiyalar va sanoat diversifikatsiyasini rag‘batlantiradi, bu esa ikki davlat iqtisodiyotini mintaqaviy raqobatbardoshlikka olib chiqadi. Siyosiy hamkorlik yuqori darajadagi uchrashuvlar orqali mustahkamlandi. 2025-yil noyabr oyidagi muzokarlarda savdo hajmini 10 milliard dollarga yetkazish strategiyasi belgilandi. Siyosiy integratsiya iqtisodiy va gumanitar sohalar bilan uyg‘unlashib, mintaqaviy barqarorlik va institutsional ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, bu ikki davlat o‘rtasida krizislarni oldini olish va mintaqaviy nizolarni diplomatik yo‘l bilan hal qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Oliy ta’lim, ilmiy va madaniy almashinuvlar strategik sheriklikning jamiyat darajasidagi qopqog‘i hisoblanadi. Bu jarayon yoshlar va mutaxassislar o‘rtasida bilim va tajriba almashuvini ta’minlab, uzoq muddatli inson kapitali rivojini rag‘batlantiradi. Gumanitar hamkorlik iqtisodiy va siyosiy integratsiyaga mustahkas asos yaratadi, bu esa strategik sheriklikni ijtimoiy barqarorlik bilan ta’minlaydi. Fuqarolar o‘rtasidagi ijtimoiy ishonch ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlikning eng barqaror komponentidir. Iqtisodiy o‘shish, siyosiy hamkorlik va gumanitar yo‘nalishlar bir-birini mustahkamlaydi. Bu uch yo‘nalishning uyg‘un rivojlanishi ikki davlat o‘rtasida strategik sheriklikni yangi sifat darajasiga olib chiqadi. Savdo diversifikatsiyasi, qo‘shma ilmiy va texnologik loyihalar, gumanitar hamkorlikni kengaytirish mintaqaviy integratsiyani

yanada chuqurlashtiradi. Ushbu jarayon yuqori darajadagi ishonch, samarali diplomatik muloqot va keng qamrovli iqtisodiy strategiyalar orqali shakllangan dinamik model bo'lib, mintaqaviy sheriklikni iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalarida barqaror qiladi. Shu bilan birga, bu model boshqa Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun ham integratsiya bo'yicha namuna bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Caspian Post. Kazakhstan becomes Uzbekistan's third largest trade partner with \$3.8 billion in trade.2024.<https://caspiantpost.com/economics/kazakhstan-becomes-uzbekistan-s-third-largest-trade-partner-with-3-8-billion-in-trade?>
- 2.Caspian Post. Uzbekistan-Kazakhstan trade turnover nears \$1.4 billion. 2025.<https://caspiantpost.com/regions/uzbekistan-kazakhstan-trade-turnover-nears-1-4-billion?>
- 3.Darakchi. Uzbekistan-Kazakhstan joint ventures reach 6,500; investment portfolio\$8B.2025.<https://darakchi.uz/en/207886?>
- 4.UZA. Bagrikenglik siyosati: O'zbek-Qozoq munosabatlarini institutsional bosqichga ko'tarish. https://uza.uz/oz/posts/bagrikenglik-siyosati-ozbek-qozoq-munosabatlarini-institutsional-bosqichga-kotarmoqda_590543?
- 5.Baikushikova, Guldarxona & Apsattarova, Gulzada. "New Approaches to Economic Cooperation between Kazakhstan and Uzbekistan." Journal of Central Asian Studies Vol. 85 No. 1, 2022, pp. 38–47. DOI:10.52536/2788-5909.2022-1.04.
- 6.Abdurazakova, Kamolakhon Y. "The Impact of Uzbekistan-Kazakhstan Relations on the Central Asian Region." International Journal of History and Political Sciences Vol. 05 Issue 03,2025, pp. 2024.DOI:10.37547/ijhps/Volume05Issue03-05.
- 7.Atajanova, Dilnoza Adilbayevna. "2017–2025-Yillarda O'zbekiston va Markaziy Osiyo Davlatlari Hamkorligi." Центральноазиатский журнал академических исследований, 2025.
- 8.Hurramov, M.K. "Theoretical Aspects of Bilateral Relations between Uzbekistan and Kazakhstan in 1991–2016." Bulletin of the L.N. Gumilyov Eurasian National University, Political Science, Regional Studies, Turkology Series, 2022, Vol. 139 No. 2, pp. 129–138.
- 9.Yangi O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik aloqalari tarixi (2017–2025 yy.). Modern Science and Research, 2025.
- 10.Nadzhimov, F. "Uzbekistan-Kazakhstan: Features and Prospects of Cultural Cooperation." Развитие педагогических технологий в современных науках, Vol. 4 No. 3, 2025, pp. 18–26.